

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

**O'zJOKU rektori**

**Sherzodxon Qudratxo'ja**

**2023 yil**

**60320200 – AXBOROT XIZMATI VA JAMOATCHILIK BILAN  
ALOQALAR BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI BO'YICH A IJODIY  
(KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**Toshkent – 2023**

**Tuzuvchilar:** Sh.Qosimov – O‘zJOKU Jamoachilik bilan aloqalar va reklama kafedrasи mudiri

O.Yuldashev – O‘zJOKU Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani, s.f.f.d.PhD.

**Taqrizehilar:** M.S.Mirsoatova – O‘zMU Jurnalistika fakulteti dekani filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.A.Каримов – O‘zDJTU Jurnalistika fakulteti dekani filologiya fanlari nomzodi, dotsent

## Kirish

60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta’lim yo‘nalishida ijodiy imtihon o‘tkazishdan maqsad, abiturientda mazkur sohada talab etiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abiturientlarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Pablik rileyshnz (jamoatchilik bilan aloqalar) sohasini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Axborot xizmatlari va PR sohasi mutaxassisi bo‘lishga moyilligi;
- Mustaqil fikr yuritishi;
- Yozma va og‘zaki savodxonlik darajasi;
- O‘z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og‘zaki muloqotga moyilligi.

## Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o‘tkaziladi.

**Birinchi bosqich** abiturientlarning axborot xizmatlari va PR sohasiga qiziqish darajasi, ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo‘yicha og‘zaki suhbat bo‘lib, u quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

- abiturientning ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan, efirga uzatilgan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a’zolari tomonidan o‘rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abiturient bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo‘lgan voqeа-hodisa tahlil etiladi hamda abiturientning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o‘tkazgani aniqlanadi;
- jamiyat va uning turli sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo‘yicha savollar beriladi;
- O‘zbekiston va jahonda yuz berayotgan so‘nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlар, islohotlar bo‘yicha savollar berish orqali abiturientning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa sohalardagi o‘zgarishlardan boxabarlik darjasini aniqlanadi;
- badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi

namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– suhbat davomida axborot xizmatlari va pablik rileyshnz (jamoatchilik bilan aloqalar) sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abiturientning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abiturientning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlari aniqlanadi.

### **Og'zaki suhbat davomida so'rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:**

1. Siz nega aynan axborot xizmatlari va jamoatchilik bilan aloqalar sohasini tanladingiz? Bu tanlov kimning ta'sirida bo'ldi?
2. Sizni jamoatchilik bilan aloqalar sohasida nima qiziqtiradi? Qachondan beri bu sohasiga qiziqasiz?
3. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
4. OAVda materiallaringizni e'lon qilganmisiz? Qaysi OAVda nechta axborot materialingiz e'lon qilingan? Bu materiallar nima haqida? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.
5. Shu davrga qadar biror axborot xizmatiga tashrif buyurib, uning faoliyati bilan tanishganmisiz?
6. "Axborot urushi", "axborot xuruji" haqidagi tushunchangiz?
7. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?
8. Xalq bilan muloqot o'rnatishda axborot xizmatlari va matbuot kotiblarining o'rni haqida qanday fikrdasiz?
9. Jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning o'rnini qanday baholaysiz?
10. O'zbekistodnda va xorijda faoliyat yuritadigan jurnalistlardan kimlarni taniysiz?
11. Sizga qaysi OAV ko'proq yoqadi: gazeta, radio, televideeni mi yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
12. "Demokratiya" deganda nimani tushunasiz?
13. Televidenie nimasi bilan sizni qiziqtiradi? Televidenieni qanday tushunasiz?
14. Internet nima? Internet nima ekanligini tushuntirib bering.
15. Jamoatchilik bilan aloqalar nima? PR-men kim?
16. Fuqarolik jamiyatni nima?
17. Fuqarolik pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz?
18. Qanday mahsulotlar va xizmatlar reklama qilinishiga cheklov o'rnatilgan?
19. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo'lsa, nima qilasiz?

20. "Ob'ektivizm"ga ta'rif bering.
21. Sizning nazaringizda, jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?
22. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o'qishdan nimalarni kutayapsiz?
23. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
24. Fuqarolarning siyosiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
25. Mashhur davlat arbobidan intervyu olish imkoniyati tug'ilsa, qanday 5 ta asosiy savolni bergen bo'lar edingiz?
26. Sizningcha, jurnalistikada vaqt me'yori nima bilan o'lchanadi? (Jurnalistikada vaqtning ahamiyati qanday?)
27. Texnik jihatdan qurollangan blogerga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimani olgan bo'lar edingiz? Nima uchun?
28. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
29. Matbuot anjumani (Press-konferensiya) deganda nimani tushunasiz?
30. Onlayn jurnalistikaning ahamiyati nimada?
31. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
32. O'zbekistondagi shoir va yozuvchilardan kimlarni taniysiz? Ularning ijodida nimalar e'tiboringizni tortadi, yoqadi?
33. Negativ xabar nega tez tarqaladi?
34. Mish-mishlarga ishonasizmi? Mish-mishlar qanday paydo bo'ladi?
35. Jurnalist etikasi deganda nimani tushunasiz?
36. PRning kompaniyalar rivojidagi o'rni nimada deb o'ylaysiz?
37. Brend deganda nimani tushunasiz?
38. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz? (qo'shimcha savol)
39. Qaysi maxalliy OAV ni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jixatlari bilan sizni jalb qiladi? Nimani o'zgartirishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz?
40. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt saflaysiz va qanday maqsadlarda? (qo'shimcha savol)
41. PRdan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq? (qo'shimcha savol)
42. Biror tashkilotni reklama qiladigan reklama-shior (slogan) o'ylab topa olasizmi?
43. Imij deganda nimani tushunasiz?
44. "Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qilishi lozim" degan tugshunchani izohlab bering.
45. "Janr"deganda nimani tushunasiz?

**Ikkinci bosqich** ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abiturientning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan

maxsus konvertda qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rribosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqqa va val fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;

– ijodiy insho o'tkazilishi uchun 3 astronomik soat vaqt belgilanadi;

– ijodiy insho betlari muhrlangan 12 varaqli daftarga yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

– ijodiy inshoning hajmi 5 betdan 10 betgacha deb belgilanadi;

– ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

– yozma ishlar faqat oliv ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

– tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abiturientlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

– ijodiy inshoga quyidagi yo'naliishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

– ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

### Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda toplash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – 93 ball.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning 33,3 foizi, ya'ni 31 ball belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal ballning 66,6 foizi, ya'ni 62 ball belgilanadi.

## Og‘zaki suhbatni baholash mezonlari

**Og‘zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo‘yish mumkin.**

| <b>№</b> | <b>Ballar qo‘yish mezonlari:</b>   | <b>ballar</b> |
|----------|--|---------------|
| 1.       | Jurnalistika, PR va OAV haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo‘q, abiturientning fikrlashi sayoz, OAVda e’lon qilingan materiallari yo‘q, lekin jurnalist bo‘lishi istagi kuchli  | 0 – 6 ball    |
| 2.       | Jurnalistika, PR va OAV sohasi haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, OAVda e’lon qilingan 1-3 kichik hajmli materiali bor   | 7 – 13 ball   |
| 3.       | Jurnalistika, PR va OAV sohasiga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, OAVni izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e’lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi   | 14 – 19 ball  |
| 4.       | Jurnalistika, PR va OAV sohalariga ko‘p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rnini chuqr tushunadi, OAVni yaxshi biladi, ko‘p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroficha baho bera oladi, 10-20 ta e’lon qilgan materiali bor  | 20 – 25 ball  |
| 5.       | Jurnalistika, PR va OAV sohalariga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko‘p borgan, axborot xizmatlari faoliyati, maqsad va vazifalari bilan tanish, PR sohasining jamiyatdagi o‘rni va roliga chuqr tavsif bera oladi, bir qator jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e’lon qilgan materiallari 20dan ko‘p | 26 – 31 ball  |

**Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)**

| <b>№</b> | <b>Ballar qo‘yish mezonlari:</b>   | <b>ballar</b> |
|----------|--|---------------|
| 1.       | 10 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog’liq va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan                       | 0 ball        |
| 2.       | Ish mavzu bo‘yicha yozilmagan  | 0 ball        |
| 3.       | Mavzu sayoz ochilgan, abiturientining fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqr emas, yozma ish mantiqan | 1-8 ball      |

|    |   |            |
|----|---|------------|
|    | bo'sh, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha  |            |
| 4. | Mavzu bir oz ochilgan, abiturientning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta                                | 9–16 ball  |
| 5. | Mavzu o'rtacha ochilgan, abiturientning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz sayoz, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta | 17–25 ball |
| 6. | Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abiturientning dunyoqarashi torroq, lekin jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta        | 26–33 ball |
| 7. | Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abiturientning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 2-3 ta             | 34–42 ball |
| 8. | Mavzu yaxshi ochilgan, abiturientning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta                             | 43–52 ball |
| 9. | Mavzu teran ochib berilgan, abiturientning dunyoqarashi chuqur va atroficha, jurnalistika roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar yo'q                              | 53–62 ball |

Ijodiy imtihon bosqichlarida to‘plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas’ul kotib yoki uning muoviniga takdim etiladi.

### **Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi**

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abiturientlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ijodiy insho yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va

imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abiturientga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abiturient ishtirokida oliy ta'lif muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abiturientlar e'tiboriga yetkaziladi.

## **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., “O'zbekiston”. 2023.
2. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. // <https://www.lex.uz> 7.02.2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.:«Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 1-жилд. – 592 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.–Т.:«Ўзбекистон» НМИУ, 2018, 2-жилд.-508 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, хаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади.–Т.:«Ўзбекистон» НМИУ, 2019, 3-жилд.-384 б.
6. Mirziyoev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 yil 27 iyun.
7. Mirziyoev Sh.M. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 2021 yil 22 fevral.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент, 2021. -458 б.
9. Емельянов С. М. Теория и практика связей с общественностью. Учебное пособие для академического бакалавриата. — М.: Юрайт. 2018. 198 с.
10. Кривоносов А. Д., Филатова О. Г., Шишкина М. А. Основы теории связей с общественностью. Учебник. — М.: Питер. 2018. 288 с.
11. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlod, 2001.
12. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
13. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
14. Nishanova G., Shukurova G., Qosimova N. va boshq. Zamonaliv media muhitda RR-xizmatlar. J.VIII. – T., “O'zbekiston”, NMIU, 2019. 512-b.

15. Qosimova N. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma:jamoatchilik bilan samarali muloqot. – T., “BAKTRIYA PRESS”, 2014.
16. Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. Т.: Ижод дунёси, 2004, 32-б.
17. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/5841063>
18. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/4390513>